

O'zbekcha

2022-2023

STUDY IN JAPAN

////// Qisqacha qo'llanma ////

www.studyinjapan.go.jp



Independent Administrative Institution
Japan Student Services
Organization


 **STUDY in JAPAN**

Yaponiya haqida 10 ta qisqacha fakt

Yaponiyada tahsil olayotgan xalqaro talabalar soni

taxminan

242,000



Yaponiyalik Nobel mukofoti sovrindorlari

28



BMTga qo'shadigan moliyaviy hissasi

3-o'rin



Yalpi milliy daromadi

3-o'rin



QS World University Rankings-2022 reytingida eng yaxshi 1000 talikka kirgan Yaponiya universitetlari soni

39



Ishlab turgan sanoat robotlari soni

2-o'rin



Jahon madaniy va tabiiy meros obyektlari

25



Global tinchlik indeksi

12-o'rin



Dunyoning 10 ta eng katta shahri ro'yxatiga kiritilgan Yaponiya shaharlarining soni

3 ta shahar



(1-, 2- va 3-o'rinlar)

Eksport qilinadigan avtomobillar soni

2-o'rin



Adabiyotlar: • Bolalar Tashqi ishlar vazirligi, Dunyoning turli bilimlar reytingi (<https://www.mofa.go.jp/mofaj/kids/ranking/index.html>)
• Condé Nast Traveler (Readers' Choice Award 2021 (Kitobxonlar tanlovi mukofoti-2021))
• Global tinchlik indeksi- 2021
• YUNESKOning Jahon merosi ro'yxati (<https://whc.unesco.org/en/list/>)
• 2021-yilda Yaponiyadagi xalqaro talabalarning yillik so'rovnoma natijalarining qisqacha mazmuni (JASSO)
• Yaponiya robotlar uyushmasi (<https://www.jara.jp/data/index.html>)

Nega Yaponiyada o'qish kerak?

Izumo Kagura ©Iku



Yaponiyada *sado*, *kabuki* va *budo* kabi an'anaviy madaniyatlar bilan birgalikda *manga* va *anime* kabi pop madaniyatlar ham mavjuddir.

Yaponiyada ko'plab tog'lar borligi, shuningdek mamlakat okeanlar bilan qurshab olinganligi tufayli siz bahor, yoz, kuz va qish fasllari mobaynida tabiat manzaralaridagi keskin o'zgarishlardan bahramand bo'lishingiz mumkin.

Qish faslidagi qaynoq buloqlar (Ginzan Onsen, Obanzava shahri) ©Koichi_Hayakawa



Madaniyat



Yahiko-jinja ibodatxonasi sumo ringi ©Yahikomura

Tabiat



Fuji tog'i va Kavaguchi ko'li bo'yidagi kuzgi barglar ©Koichi_Hayakawa

Xavfsizlik

Sokinlanish vaqti ©yurani



Shinkansen tezsurar poyezdi

Yaponiyaning qulay turmush tarzi va ilg'or tibbiy xizmatlari dunyodagi eng yuqori darajalardan biri hisoblangan ilm-fan va texnologiya bilan qo'llab-quvvatlanadi. Yaponiya hukumati ilm-fan va texnologiya sohasini yanada rivojlantirishga e'tibor qaratishda davom etib kelmoqda, shuningdek, Yaponiya tomonidan ishlab chiqilgan superkompyuterlar ketma-ket ikki yil mobaynida dunyo reytingida birinchi o'rinni egallab kelmoqda.

Ovqat




Sushi

Yaponlarning mavsumga qarab tanlangan ingredientlardan iborat an'anaviy ovqatlanish madaniyati hisoblangan Vashoku YUNESKO tomonidan nomoddiy madaniy meros sifatida belgilangan. Ushbu ovqatlanish madaniyati sog'liqqa foydali va rangba-rang oshxona sifatida butun dunyo e'tiborini tortib kelmoqda.



Takoyaki (sakkizoyoq go'shti solingan qovurilgan chuchvara)

Yaponiyadagi oliy ta'lim



- Yaponiyada oliy ta'lim olti yillik boshlang'ich maktab, uch yillik kichik o'rta maktab va uch yillik o'rta maktabni (jami 12 yil) tugatgandan so'ng boshlanadi.
- Yaponiya oliy o'quv yurtiga kirishni xohlovchi xalqaro talabalar **12 yillik rasmiy ta'limni tamomlashlari kerak.**
- Rasman 12 yildan kam rasmiy ta'lim olganlar oliy o'quv yurtiga o'qishga kirishdan oldin avval bir yoki ikki yil universitetda tayyorlov kursini tamomlashlari kerak.

Yaponiyada ta'lim olishning 7 ta bosqichi

Boshlash Universitet yoki kasb-hunar kollejiga oddiy talaba sifatida kirish

- Bosqich 1 Ma'lumot to'plash**
 - ▶ Kerakli til ko'nikmalarini va xarajatlarni tekshiring
- Bosqich 2 Maktabni tanlang**
 - <12 oy oldin>
 - ▶ Maktab haqida ma'lumot va ariza shakllari uchun jo'nating
 - ▶ Qabul qilish talablari va imtihonlarini tasdiqlang
- Bosqich 3 Imtihon topshiring**
 - ▶ Talab qilingan imtihonni topshiring JLPT, EJU, TOEFL, IELTS, SAT, IB va boshqalar.
- Bosqich 4 Ariza bilan murojaat qiling**
 - <6-9 oy oldin>
 - ▶ Kerakli hujjatlarni o'zingiz tanlagan maktabga jo'nating
 - ▶ Ariza to'lovini to'lang
- Bosqich 5 O'qishga kirish imtihonini topshiring**
 - ▶ Hujjatlar tekshiruvidan o'tgandan so'ng, suhbatdan o'ting va kirish imtihonini topshiring
- Bosqich 6 O'qishga kirish jarayoni**
 - ▶ Qabul qilinish uchun ruxsat oling
 - ▶ O'qish to'lovlarini to'lang
- Bosqich 7 Safar tayyorgarliklari**
 - ▶ Viza olish uchun murojaat qiling
 - ▶ Aviachipta va sug'urta sotib oling

Maqsad

EJU haqida



Examination for Japanese University Admission for International Students (EJU)

Ushbu test talabalarning Yaponiya universitetlari va boshqa shu kabi oliy ta'lim institutlarida ta'lim olish uchun zarur bo'lgan yapon tili ko'nikmalari va umumiy akademik bilim ko'nikmalariga ega ekanliklarini tekshiradi.

- ★ Yaponiya universitetlarining 60% dan ortig'i (milliy universitetlarning 90%) abituriyentlarni tekshirishda EJU test natijalariga qaraydi.
- ★ Natijalar ikki yil davomida amal qiladi
- ★ EJU imtihonida a'lo natijalariga ega bo'lgan abituriyentlarga o'zini-ozini moliyalashtiriladigan xalqaro talabalar uchun Monbukagakusho stipendiyasi va'da qilinadi (7-bet)
- ★ Test bir necha marta topshirilishi mumkin

• Imtihonlar jadvali

Yiliga ikki marta (iyun va noyabrda) o'tkaziladi

• Manzil

Yaponiyada va dunyo bo'ylab 14 mamlakat va mintaqalarda o'tkaziladi!

EJU
<https://www.jasso.go.jp/en/ryugaku/eju/index.html>



Ta'lim olish to'lovi va yashash xarajatlari

Ta'lim olish to'lovlari

Bir yil uchun taxminiy ta'lim to'lovlari

Min **540 000 iyena**  **1 130 000 iyena** Max


Eslatmalar: Tibbiyot, stomatologiya va farmatsevtika fakultetlari bundan mustasno. Birinchi yili o'qishga kirish uchun va boshqa qo'shimcha to'lovlar alohida to'lanishi kerak.

Manba: Ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiya Vazirligi (MEXT) - 2020-yilda xususiy universitetlarga o'qishga kiradigan talabalarning talabalar to'lovlari va boshqa xarajatlari bo'yicha so'rovnoma (https://www.mext.go.jp/a_menu/koutou/shinkou/07021403/1412031_00003.htm)

Yashash xarajatlari

Yashash xarajatlari bo'yicha qo'llanma

Katta shaharlarda yashash xarajatlari qimmatroq. Masalan: Tokioda 108 000 iyena



Manba: O'zini-o'zi moliyalashtiradigan xalqaro talabalarning turmush tarziga oid tadqiqot so'rovi 2019 (JASSO)

Adabiyotlar: Yaponiyaning rasmiy statistikasi portali sayti, chakana narxlariga oid tadqiqot so'rovnomasi (Tokiyoning maxsus palatalari, 2021-yil dekabr) Tokio Yapon tili ta'lim markazida yotoqxonalar xarajatlari Xususiy kvartira xarajatlari, 20 m² kvartira uchun

Talaba sifatida noto'liq stavka ishlash

"Ilgari yashash maqomi bo'yicha ruxsat etilganidan yana boshqa faoliyat bilan shug'ullanishga ruxsat" olishga ariza topshirgan "Talaba" maqomiga ega bo'lgan rezidentlar haftasiga 28 soatgacha to'liq bo'lmagan stavkada ishlashlari mumkin.



"Yaponiyada talaba sifatida ko'p pul ishlashingiz mumkin" deb ta'kidlaydigan xalqaro talabalarga xizmat ko'rsatuvchi agentlardan ehtiyot bo'ling!



- Siz soatiga 3000 iyena olishingiz mumkin. ❌ O'rtacha soatbay ish haqi 1080 iyena.
- Xalqaro talaba sifatida siz oyiga 300 000 iyena ishlay olishingiz mumkin. ❌ Noto'liq kun ishlaydigan talabalar oyiga taxminan 59 000 iyena ishlab topishlari mumkin.

Grantlar va moliyaviy yordam



Grantlar <https://www.studyinjapan.go.jp/en/planning/about-scholarship/>

1-usul Yaponiya hukumati tomonidan beriladigan stipendiyalarga ariza topshiring

* Miqdorlar darajaga qarab farq qilishi mumkin. ** Yapon tili maktablari o'quvchilari uchun miqdor

	MEXT stipendiyasi	O'zini o'zi moliyalashtiradigan xalqaro talabalar uchun Monbukagakusho Honors stipendiyasi	Talaba almashinuvini qo'llab-quvvatlash dasturi (Yaponiyada qisqa muddatli o'qish uchun stipendiya)
Oylik moddiy yordam miqdori	117 000 iyenadan*	48 000 iyena yoki 30 000 iyena**	80 000 iyena
Ta'lim to'lovidan ozod qilish	✓		
Bepul aviachipta	✓		
Bepul tayyorlov	✓		
To'lov davri	Butun xalqaro ta'lim davri davomida	Bir yil yoki olti oy	Dasturda ishtirok etayotganda
Tegishli talabalar	Magistratura, bakalavriat, texnologiya kolleji, kasb-hunar kolleji, yaponshunoslik va o'qituvchilar tayyorlash kurslari talabalari	Magistratura, bakalavriat, texnologiya kolleji, kasb-hunar kolleji va yapon tili kurslari talabalari	Yaponiyada bir yil yoki undan kamroq muddat davomida tahsil olayotgan magistratura, bakalavriat, texnologiya kolleji va kasb-hunar kolleji talabalari
Baholarga asoslangan	✓	✓	✓
Oila daromadiga asoslangan		✓	✓
Ko'rib chiqish jarayoni	Hujjatlarni ko'rib chiqish, yozma imtihon va suhbat	Maktabga bog'liq	Hujjatlarni ko'rib chiqish
Nechta talabaga beriladi	E'lon qilinmagan	Taxminan 7000 talaba	Taxminan 5000 talaba

- Ma'lumot uchun murojaatlar va arizalar uchun:** Mamlakatingizdagi Yaponiya elchixonasi yoki konsulligi yoki siz hozir o'qiyotgan ta'lim dargohi
- Siz o'qishni rejalashtirgan Yaponiyadagi ta'lim dargohi
- Siz hozir o'qiyotgan ta'lim dargohi

2-usul

Grant olish uchun mahalliy hukumat yoki xususiy fondga murojaat qiling

- Yaponiyadagi ta'lim dargohiga kirganingizdan so'ng ariza topshiring.
- Mamlakatingiz, siz o'qimoqchi bo'lgan ta'lim dargohi va ta'lim sohasiga qarab ko'plab o'ziga xosliklar bo'lishi mumkin.
- Har yili bir necha nafardan bir necha yuz nafargacha talabalarga beriladi. Quyidagi saytdan qidiring."

Mahalliy hukumat yoki xususiy fond stipendiyalari <https://www.studyinjapan.go.jp/en/planning/by-style/pamphlet/>



- Ma'lumot uchun murojaatlar va arizalar uchun:** Siz o'qishni rejalashtirgan Yaponiyadagi ta'lim dargohi yoki shunga mos keluvchi guruh

3-usul

Talabalar kampus stipendiyasini olish uchun ariza topshiring yoki o'quv to'lovidan ozod qilish/kamaytirish tizimidan foydalaning


- X universiteti uchun:** O'quv to'lovidan ozod qilish (50% yoki 100%)
Kimlar uchun Moliyaviy sabablarga ko'ra to'lovlarni to'lashda qiynaladigan a'lo bahoga o'qiydigan talabalar
- Y universiteti uchun:** Oyiga 82 000 iyena stipendiya (to'rt yilga)
Kimlar uchun Kirish imtihonlarida a'lo natijalarga erishgan talabalar

- Ma'lumot uchun murojaatlar va arizalar uchun:** Siz o'qishni rejalashtirgan Yaponiyadagi ta'lim dargohi

Yaponiyada ishlash

Xalqaro talabadan ishchi xodimga aylaning

“Talaba” rezidentlik maqomidan ishchi rezidentlik maqomlaridan biriga o'tadigan odamlar soni



Xalqaro talabalar uchun eng yaxshi 10 ta kasb

Reyting	Ish o'rni tavsifi
1	Og'zaki va yozma tarjima
2	Xorijiy savdo
3	Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari
4	Rejalashtirish (marketing tadqiqotlari)
5	Boshqaruv (ijrochi bo'lmagan)
6	Texnologiyani rivojlantirish
7	Korporativ sotuvlar
8	Rejalashtirish (jamoatchilik bilan aloqalar, reklama)
9	Buxgalteriya hisobi
10	Ta'lim


Manba: "Xalqaro talabalarning 2020-yilda yapon kompaniyalaridagi bandlik holati" (Yaponiya Immigratsiya xizmatlari agentligi)

Ish qidirish

Yaponiyada ish qidirish juda o'ziga xosdir. Shuning uchun ish izlayotgan xalqaro talabalar tayyorgarlikni oldindan boshlashlari juda muhimdir. Ma'lumot to'plashni boshlash uchun quyidagi saytlardan foydalaning.

Xalqaro talabalar uchun ish qidirish bo'yicha qo'llanma (JASSO)
https://www.jasso.go.jp/en/ryugaku/after_study_j/job/guide.html

Mutaxassislar uchun ochiq (JETRO)
<https://www.jetro.go.jp/en/hrportal/>



Intervyu



Kerakli xodim bo'lish uchun yapon tilini va korporativ madaniyatni o'rganing!

Austin

2012-yilda Yaponiyaga keldim va tayyorlov kursini tamomlab, siyosatshunoslik sohasida o'qish uchun Tokio universitetiga o'qishga kirdim. Hozir men frilans dasturchi bo'lib ishlayman. Garchi bu siz tanlagan mutaxassislikka bog'liq bo'lsa-da, Yaponiya universiteti juda ko'p erkinliklarni taklif qiladi va siz hatto malaka oshirish kabi turli xil darsdan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlarda ham qatnashishingiz mumkin. Bundan tashqari, yangi bitiruvchilarni ishga olish tizimi yordamida Yaponiya ilg'or davlatlar orasidagi siz ilk karyerangizni shakllantira olishingiz uchun eng oson yo'lni taqdim qiluvchi mamlakat hisoblanadi. Yaponiyada muvaffaqiyatga erishish uchun yapon millatiga mansub bo'lishdan ko'ra, siz chet ellik sifatida o'zingizning noyob kuchli tomonlaringizdan maksimal darajada foydalanishingiz lozim. Yaponiyada o'qish va ishlash orqali o'rganilgan til ko'nikmalari, shuningdek, ushbu o'ziga xos madaniyatni tushunish hech narsa o'rini bosa olmaydigan kuchli jihatga aylinishi shubhasiz. Agar siz globallashuv rivojlanib borayotgan dunyoda talabgar xodim bo'lishni istasangiz, Yaponiyada o'qish va ishlashni tavsiya qilaman.

Intervyu



Men Yaponiyani qurilish muhandislik texnologiyasini Ruandaga olib kelishni xohlayman!

Rumanzi Hypolite
NIT (KOSEN), Maizuru kolleji
(Ushbu intervyu vaqtida)

Mamlakatim shunday muammoga duch kelmoqdaki, biz infratuzilmani yaxshilashni istasak ham, bizga malakali arxitektorlar va muhandislar yetishmaydi. Shuning uchun men o'z mahoratimni vatanimga olib ketib, mamlakatim rivojiga hissa qo'sha olishim uchun yuqori darajadagi ta'lim va muhandislik darajasi bilan mashhur bo'lgan Yaponiyaga o'qish uchun keldim. Men Yaponiyada yashash haqida xavotirda edim va bir necha muammolarga ham duch keldim, lekin har doim atrofimda menga yordam beradiganlar bo'ldi va men ulardan juda minnatdorman. Hozir men texnologiya kollejida qurilish muhandisligi bo'yicha tahsil olyapman va universitetga kirishni, agar iloji bo'lsa, magistraturani ham o'qishni rejalashtirmoqdaman. Mening orzum vatanimda qurilish kompaniyasi tashkil etish va Yaponiyada o'rgangan ko'nikmalarim va madaniyatni yosh avlodga o'rgatishdir.

Stipendiya tufayli men bor e'tiborimni ta'lim olishga jalb qila oldim!

Ioannis Gkolfinopoulos
Tokio texnologiya instituti, Qurilish Oliy maktabi magistratura kursi
(Ushbu intervyu vaqtida)

O'ylashimcha, Yaponiyadagimda moliyaviy tashvishlardan holi bo'lish bor e'tiborimni tadqiqotimga qaratisim uchun muhim rol o'ynadi, shuning uchun men MEXT stipendiyasiga ariza topshirdim. Yaponiya universitetlarida talabalarga ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash va yo'l-yo'riqning ko'limi haqiqatan ham hayratlanarlidir. Boshqa tomondan, tig'iz vaqt davomida qatnash juda g'aroyibdir! Yaponiya urf-odat va texnologiya uyg'unlashgan o'ziga xos mamlakatdir. O'ylashimcha, g'arbliklar bu yerga kelganda ko'p o'rinlarda madaniy shokka tushishlari mumkin, shuning uchun bu yerning tili va madaniyati haqida o'rganish juda muhim sanaladi. MEXT stipendiyasi bir maromda ketadigan hayotni kafolatlaydi, shunday ekan nega bu stipendiyani olishga harakat qilmaslik kerak.

Yaponiya universiteti hayoti



Yaponiyada xalqaro talaba sifatida to'laqonli hayotdan rohatlaning!

KIAULAKITE PAULINA
Inson hayoti va atrof-muhit fanlari fakulteti, psixologiya bo'limi ikkinchi kurs talabasi
(Ushbu intervyu vaqtida)

Men o'rta maktab o'quvchisi sifatida mamlakatga birinchi tashrifim chog'ida Yaponiyada xalqaro talaba bo'lib o'qishni orzu qila boshladim. Tokioning madaniyati va kattaligi meni hayratda qoldirdi va bu yerda o'qishdan rohat olishimni his qildim. Men MEXT stipendiyasini yutib, Tokio chet tillar universitetida bir yil davomida yapon tilini o'rganganimdan so'ng, Ochanomizu universitetining Inson hayoti va atrof-muhit fanlari fakultetining psixologiya bo'limiga o'qishga kirdim. Ochanomizu universiteti nisbatan kichik milliy universitetdir, shuning uchun sinfda chet ellik talabalarga yaponiyalik talabalardek munosabatda bo'lishadi. Psixologiya yo'nalishida tahsil olayotgan boshqa yapon universiteti talabalar bilan solishtirganda, ushbu universitetda o'quv rejasi va kurs kontentida ham hech qanday farq mavjud emas. Bu ba'zi topshiriqlar va testlarni talabalar uchun qiyin qilishi mumkin bo'lsa-da, bu o'rganish kerak bo'lgan ko'p narsalar borligini ham anglatadi. Shuningdek, men talabalik hayotim juda maroqli kechayotganini his qilaman va ko'pincha o'zim orttirgan yapon do'stlarim bilan sayr qilishdan rohat olaman.



↑ Tushlikdagi tanaffus vaqtida mustaqil til o'rganish kafesi. Hammamiz juda yaxshi til topishamiz.
← Kyobashidagi sayyohlik maskanida olingan surat. Meni yapon madaniyati qurshab olgan!

Odatiy kun

● 8:00 - Uyg'unish

Men yuzimni yuvaman va nonushta qilaman.

● 10:00 - Maktabga borish
Universitetga yaqin yashaganim uchun men qatnaydigan masofa qisqal!

● 10:30 dan 12:10 gacha - Ertalabki mashg'ulotlar
Do'stlarim bilan darslarga qatnashaman.

● 12:10 dan 13:20 gacha - Tushlik

Men do'stlarim bilan oshxonada tushlik qilaman, keyin kutubxonada o'qiyman yoki sinfda suhbatlashamiz.

● 13:20 dan 16:30 gacha - Peshindan keyingi mashg'ulotlar
Men o'qituvchini diqqat bilan tinglayman va konspekt qilaman.

● 16:30 dan 18:30 gacha - Do'stlar bilan vaqt
Men maktabdan keyin ko'pincha vaqtimni yapon do'stlarim bilan o'tkazaman. Universitetga yaqin bo'lgani uchun biz tez-tez Ikebukuroga boramiz va kechki ovqatni tanovul qilamiz yoki birgalikda karaokega boramiz.

Yaponiyada ta'lim olish haqida veb-sayt

Yaponiyada ta'lim olish haqidagi veb-saytda Yaponiyada o'qish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, jumladan, qanday tayyorgarlik ko'rish, Yaponiyada talabalik hayoti va stipendiya haqida ma'lumotlar mavjud. Shuningdek, siz tanlagan mutaxassisligingiz, darslarda ishlatiladigan til va maktab joylashuviga qarab ehtiyojlaringizga javob beradigan maktabni qidirishingiz mumkin. Yaponiyada o'qish istagida bo'lgan yoki o'qish uchun maktab topmoqchi bo'lganlar bilan bir qatorda, biz ushbu veb-saytni hali ham chet elda o'qish xohishida ikkilanyotgan yoki haligacha qaysi davlatda o'qishni tanlashni bilmayotganlar uchun ham tavsiya qilamiz.



Yaponiyada ta'lim olish haqida veb-sayt <https://www.studyinjapan.go.jp/en/>



Yaponiya yarmarkalarida ta'lim

Ushbu qimmatli imkoniyatlar orqali siz to'g'ridan-to'g'ri maktab vakillari bilan gaplashishingiz mumkin.

Yaponiyada ta'lim olish bo'yicha yarmarka har yili onlayn va yuzma-yuz tarzda o'tkaziladi.

To'liqroq ma'lumot olish uchun, Study in Japan veb-saytiga tashrif buyuring.

Yaponiya yarmarkalarida ta'lim <https://www.studyinjapan.go.jp/en/other/event/>



JASSO Xalqaro ofislari

JASSO ning beshta xalqaro ofisining har birida siz biz bilan shaxsan yoki telefon hamda elektron pochta orqali maslahat olishingiz mumkin. Shuningdek, bizda Yaponiyada o'qish bo'yicha turli xil manba materiallari mavjud.




Tailand

1016/3, 10F Serm-mit Tower, 159 Asok-Montri Rd., Bangkok 10110 THAILAND
Tel : (+66) 2-661-7057
E-mail : info@jeic-bangkok.org
Web : <https://www.jeic-bangkok.org/>
Facebook : <https://www.facebook.com/JASSO.Thailand>



Koreya

#702 Garden Tower, 84 Yulgok-ro, Jongno-gu, Seoul 03131 REPUBLIC OF KOREA
Tel : (+82) 2-765-0141
E-mail : jasso@jasso.or.kr
Web : <http://www.jasso.or.kr/>
Facebook : <https://www.facebook.com/JASSO.Korea>
Instagram : <https://www.instagram.com/jasso.korea/>



Indoneziya

Jakarta Summitas Tower II, 2nd Floor Jalan Jenderal Sudirman Kav. 61-62, Jakarta 12190 INDONESIA
Tel : (+62) 21-252-1912
E-mail : info@jasso.or.id
Web : <http://www.jasso.or.id/>
Facebook : <https://www.facebook.com/jasso.indonesia>
Instagram : <https://www.instagram.com/jasso.indonesia/>
WhatsApp : <https://api.whatsapp.com/send?phone=62212521912>



Vyetnam

4th Floor, CornerStone Building, 16 Phan Chu Trinh, Hoan Kiem, Hanoi, VIETNAM
Tel : (+84) 24-3710-0226
E-mail : info@jasso.org.vn
Web : <http://www.jasso.org.vn/>
Facebook : <https://www.facebook.com/JASSO.Vietnam>



Malayziya

A-7-5, Northpoint Offices, Mid Valley City, No.1, Medan Syed Putra Utara, 59200 Kuala Lumpur, MALAYSIA
Tel : (+60) 3-2287-0812
E-mail : enquiry@studyinjapan.org.my
Web : <http://www.studyinjapan.org.my/>
Facebook : <https://www.facebook.com/JASSO.Malaysia>

Biz chin dildan ishonamizki, har bir inson Yaponiyada ta'lim olish orqali o'ziga arziydigan narsani topa oladi.

Yaponiya talabalarga xizmatlar tashkiloti (JASSO) xalqaro talabalar uchun quyidagi yordam dasturlarini taqdim etadi

- Stipendiya ta'minoti
- Xalqaro talabalar uchun Yaponiya universitetiga kirish uchun imtihon (EJU)
- Chet elda o'qish haqida ma'lumot to'plash va taqdim etish
- Yapon tilini o'qitish
- Uy-joy borasida yordam

Quyidagilar tomonidan tahrirlangan va chop etilgan

"Mustaqil ma'muriy muassasa, Yaponiya talabalarga xizmat ko'rsatish tashkiloti (JASSO) Axborot xizmatlari bo'limi, Talabalar almashinuvi bo'limi
2-2-1 Aomi, Koto-ku, Tokio 135-8630"
E-mail : infoja@jasso.go.jp
Tel : (+81) 3-5520-6111
Web : <https://www.studyinjapan.go.jp/ja/>



Q. Men yapon maktabida o'qiganman. Men xalqaro talabalar kirish imtihoniga ariza topshira olamanmi?

A. Xalqaro talabalar kirish imtihonini topshira olish yoki olmasligingizni maktab hal qiladi. Yapon o'rta maktabini bitirganlar, shuningdek, Yaponiya fuqaroligi va yana boshqa bir mamlakat fuqaroligiga ega bo'lganlar maktabga kirishdan oldin kirish imtihonlari haqida ma'lumot olishlari kerak.

Q. Iltimos, magistraturaga o'qishga kirish jarayoni haqida gapirib bering.



A. O'qishga kirish talablarini tekshiring, tadqiqot bo'yicha taklifni ishlab chiqing va qanday hujjatlarni topshirish kerakligini bilib oling. Odatda, instruktorni o'zingiz topishingiz kerak. Ba'zi ta'lim muassasalari ariza berishdan oldin norasmiy qabul qilishni talab qiladi, shuning uchun buni tanlagan muassasangizdan imkon qadar tezroq so'rab bilib oling.

Q. Ariza topshirish muddati, kerakli hujjatlar va kirish imtihoni haqida ma'lumotni qanday izlashim va olishim kerak?



A. Ariza topshirish jarayoni va kirish imtihonlari tafsilotlarini maktab veb-saytida yoki qabul qilish yo'riqnomasida topish mumkin. Maktab borasida bir qarorga kelganingizdan so'ng, maktabning veb-saytini yoki qabul qilish qoidalari o'rganib chiqing.

Q. Iltimos, o'rta maktab xalqaro almashinuv dasturi va stipendiya haqida gapirib bering.

A. Quyidagi guruhlar o'rta maktablardagi xalqaro almashinuvlar bo'yicha qo'llab-quvvatlov taklif qiladi.

- AFS madaniyatlararo dasturlari
URL: <https://afs.org>

Eslatma: Mahalliy ofisiga murojaat qilish uchun "Find AFS in your Country" funksiyasidan foydalaning.

- TUSHUNISH UCHUN YOSH
URL: <http://yfu.or.jp>